Maxmudjonova Gulshaxnoz Ulug'bek qizi (Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti "Kompyuter lingvistikasi va raqamli texnologiyalar" kafedrasi tayanch doktoranti;
E-mail: gulshaxnozmahmudjonova@gmail.com)

FE'L SO'Z TURKUMIDA URG'U

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek tilida fe'l so'z turkumida urg'uning fonetik va kontekstual xususiyatlari tahlil qilinadi. Fe'llarda urg'u asosan kvantitativ xarakterga ega, ya'ni, urg'uli bo'g'inning boshqa bo'g'inlarga nisbatan cho'ziqroq talaffuz qilinishi asosiy belgi sifatida namoyon bo'lishi yoritiladi. Kontekstual tahlil asosida fe'l urg'usining gapdagi semantik va grammatik markaz bilan bog'liqligi ham ko'rsatib beriladi. Natijalari fe'l so'z turkumida urg'uning fonetik tuzilish, morfologik shakllanish va nutqiy vaziyat bilan uzviy aloqador murakkab hodisa ekanini tasdiqlaydi.*

Kalit so'zlar: *fe'l, so'z urg'usi, kvantitativ urg'u, leksik urg'u, fonetik tahlil, kontekstual tahlil, bo'g'in, o'zak, affiks.*

УДАРЕНИЕ В ГЛАГОЛЬНЫХ ФОРМАХ

Аннотация. *В данной статье анализируются фонетические и контекстуальные особенности ударения в глагольной части речи в узбекском языке. В глаголах ударение в основном носит количественный характер, то есть проявляется в том, что ударный слог произносится более длительно по сравнению с другими слогами. На основе контекстуального анализа также показана связь глагольного ударения с семантическим и грамматическим центром в предложении. Полученные результаты подтверждают, что ударение в глагольной части речи является сложным явлением, тесно связанным с фонетической структурой, морфологическим оформлением и речевым контекстом.*

Ключевые слова: *глагол, словесное ударение, количественное ударение, лексическое ударение, фонетический анализ, контекстуальный анализ, слог, основа, аффикс.*

STRESS IN VERBAL FORMS

Annotation. *This article analyzes the phonetic and contextual features of stress in the verb word class in the Uzbek language. In verbs, stress is mainly quantitative in nature, that is, it is characterized by the stressed syllable being pronounced longer than the other syllables. Based on contextual analysis, the relationship of verb stress with the semantic and grammatical center in the sentence is also demonstrated. The results confirm that stress in the verb word class is a complex phenomenon closely related to phonetic structure, morphological formation, and the speech context.*

Keywords. *Verb, word stress, quantitative stress, lexical stress, phonetic analysis, contextual analysis, syllable, stem, affix.*

Kirish. Urg'u tilning muhim prosodik hodisalaridan biri bo'lib, so'z tarkibidagi muayyan bo'g'inning boshqa bo'g'inlarga nisbatan kuchli artikulatsion va nafas bilan talaffuz qilinishi orqali yuzaga chiqadi. Fonetik nuqtayi nazardan, urg'uni faqat birgina akustik belgi, masalan, balandlik, cho'ziqlik yoki tovush kuchi bilan izohlash yetarli emas, chunki urg'u murakkab ko'rsatkich bo'lib, u, bir vaqtning o'zida, respirator faollik, laringal harakat, davomiylik va ohang kabi bir necha omillarning uyg'unlashuvi asosida namoyon bo'ladi [1]. Shu jihatdan, urg'u nafaqat fonetik, balki ayrim tillarda grammatik va sintaktik vazifa ham bajaradi. Xususan, urg'u o'rni so'zning grammatik shakli, morfologik tarkibi va ayrim hollarda sintaktik funksiyasi bilan bog'liq holda o'zgarishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, grammatik shakllarga boy bo'lgan fe'l so'z turkumida urg'uning o'rni va funksiyasini alohida tadqiq etishni taqozo qiladi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbek tilshunosligida fe'l so'z turkumi semantik, morfologik va sintaktik jihatdan markaziy birliklardan biri sifatida talqin etiladi. Shavkat Rahmatullayev fe'lning turkumlik semasini "predmetning harakat-holat belgisi" bilan izohlaydi hamda leksemaning qaysi turkumga mansubligi aynan shu semantik mundarijiga ko'ra belgilanishini ta'kidlaydi. Muallif fe'lni leksik turkumlar orasida ikkilamchi yetakchi turkum deb baholab, ravish aynan fe'l anglatgan harakat-holatning belgisini ifodalashini ko'rsatadi. Shuningdek, Rahmatullayev fe'lning predikativ xususiyatiga alohida urg'u berib, predikativ ko'rsatkichlarga ega fe'l leksemashakli gaplik intonatsiyasi bilan mustaqil gap holatiga o'ta olishini qayd etadi. Bu esa fe'lning nafaqat leksik-semantik, balki sintaktik markaz sifatidagi mavqeyini ham ko'rsatadi[2]. R. Sayfullayeva va B.Mengliyevlar ham fe'lni mustaqil so'z turkumlari tarkibida alohida o'ringa qo'yadilar. Ular substansial yondashuv asosida fe'lning atash semasini "harakat-holatni atash" deb belgilaydilar va shu jihatdan uni ot, sifat, son, ravish kabi boshqa mustaqil turkumlardan farqlaydilar. Shu bilan birga, fe'l o'zgaruvchi leksema sifatida nisbat, o'zgalovchi va harakat tarzi kabi grammatik shakllarni qabul qilishi bilan ajralib turadi. Sintaktik tasnifda esa fe'l gap bo'lagi bo'lishga xoslangan birlik sifatida baholanadi. Bu xusu-

siyatlar fe’l shakllarining talaffuz, ritm va urg‘u bilan bog‘liq hodisalarini o‘rganishda muhim nazariy asos yaratadi, chunki urg‘u aynan harakat-holatni ifodalovchi va ko‘p shaklli paradigmaga ega birliklarda yanada faol namoyon bo‘ladi [3].

Urg‘u alohida, tor doiradagi leksik hodisa sifatida emas, balki og‘zaki adabiy nutqning prosodik va orfoepik tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. Og‘zaki shaklning moddiy asoslari qatorida nutq tovushlari bilan birga urg‘u, ohang, melodika, pauza, tembr, ritm va temp sanab o‘tiladi. Bu esa urg‘uni talaffuz me’yorini yuzaga chiqaruvchi markaziy fonetik vositalardan biri deb baholashga asos beradi [4].

Mirtojiyevning urg‘u haqidagi eng muhim nazariy xulosasi shuki, u o‘zbek tilidagi leksik urg‘uni an’anaviy talqindagidek dinamik emas, kvantitativ deb baholaydi. Ya’ni, urg‘uning asosiy belgisi tovush kuchida aks etmaydi, balki bo‘g‘indagi, aniqrog‘i unlidagi cho‘ziqlik bilan bog‘lanadi. Oldingi ko‘plab ishlarda o‘zbek urg‘usiga rus tili modeli tatbiq qilinganini tanqid qiladi va eksperimental material asosida bunday qarashni qayta ko‘rib chiqadi. Mirtojiyev o‘zbek tilidagi leksik urg‘uni qat’iy bog‘langan, doim oxirgi bo‘g‘inga tushadigan urg‘u deb hisoblamaydi. Uning ta’kidlashicha, o‘zbek tilidagi leksik urg‘u bog‘li emas, balki erkindir [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Fe’l so‘z turkumida urg‘u fonetik va kontekstual jihatdan o‘ziga xos xususiyatga ega. Fonetik tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilidagi fe’l urg‘usi asosan kvantitativ xarakterga ega bo‘lib, urg‘uli bo‘g‘in boshqa bo‘g‘inlarga nisbatan cho‘ziqroq talaffuz qilinadi. Urg‘uning joylashuvi ko‘pincha fe’l o‘zagining bo‘g‘in tuzilishiga bog‘liq bo‘ladi: CVC, VCC, VCV, CVCV tarkibli tub fe’llarda urg‘u, odatda, birinchi bo‘g‘inda saqlanadi. Shuningdek, 2-shaxs ko‘plik, nisbat, zamon, ravishdosh va harakat nomi yasovchi bir qator qo‘shimchalar urg‘u olmaydi va urg‘u o‘zakda qoladi. Biroq ayrim fonetik hodisalarda, masalan, reduksiya, tor unli ta’sirida urg‘u keyingi bo‘g‘inga ko‘chishi ham kuzatiladi. Shu bilan birga, -(u)v, -gan, -(a)r kabi shakllar urg‘u oladi va bunday hollarda urg‘u aynan affiksli bo‘g‘inda markazlashadi.

Fe’l so‘z turkumida urg‘uning fonetik xususiyatlari

Holat	Misollar	Urg‘u
Yopiq bo‘g‘inli tub fe’llarda	SE`VMOQ	1-bo‘g‘inda
VCV, CVCV tarkibli fe’llarda	I`SIMOQ	1-bo‘g‘inda
Ot + -la orqali yasalgan fe’llarda	GU`LLAMOQ	O‘zakda saqlanadi
Istisno holatda	ISHLA`MOQ	2-bo‘g‘inda
2-shaxs ko‘plik qo‘shimchasida	TU`RING	O‘zakda saqlanadi
Nisbat qo‘shimchalari bilan	CHA`QIR	Asosan, o‘zakda
Ochiq bo‘g‘inli tub fe’l + -di	YE`DI, DEDI	1-bo‘g‘inda
Ravishdosh -(i)b bilan	CHI`QIB	1-bo‘g‘inda
Harakat nomi -(i)sh bilan	YU`RISH	O‘zakda saqlanadi
-(u)v, -gan, -(a)r bilan	O‘QU`V, YONA`R	Affiksli bo‘g‘inda

Kontekstual tahlil esa fe’l urg‘usining faqat fonetik emas, balki grammatik va semantik tabiatga ham ega ekanini ko‘rsatadi. Tub fe’llarda va ot asosidan -la yordamida yasalgan fe’llarda urg‘uning o‘zakda saqlanishi leksik ma’noning markaziy mavqeyini bildiradi. Grammatik qo‘shimchalarning katta qismi urg‘usiz bo‘lib, ular semantik markazni egallamaydi. Aksincha, -(u)v, -gan, -(a)r kabi shakllar yangi ma’no markazini yuzaga keltiradi va shu sababli urg‘u shu bo‘g‘inga ko‘chadi. Analitik shakllarda esa ko‘makchi, yordamchi va to‘liqsiz fe’llar urg‘u olmaydi, chunki semantik markaz asosiy fe’lda bo‘ladi. Demak, fe’l so‘z turkumida urg‘uning joylashuvi fe’lning fonetik tuzilishi bilan birga, uning grammatik shakllanishi va semantik markazi bilan ham bevosita bog‘liqdir.

Natijalar. O‘zbek tilida urg‘uning so‘z oxiriga tushishi haqidagi umumiy qoida barcha holatlarda ham to‘liq amal qilmaydi. Fe’llarda urg‘uning joylashuvi, avvalo, o‘zakning fonetik tuzilishi bilan belgilanib, urg‘u o‘zakda saqlanishi kuzatildi.

Shuningdek, grammatik shakllanishda affikslarning urg‘uga munosabati bir xil emasligi aniqlanib, ayrim affikslar urg‘uni qabul qilmasligi, boshqalari esa urg‘u markazini o‘ziga ko‘chira olishi kuzatildi. Bu esa urg‘u tizimining morfologik omillar bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, urg‘uning joylashuvi faqat fonetik omillar bilan emas, balki nutqiy vaziyat va gap tarkibidagi semantik markaz bilan ham belgilanib, fe’lning kesim sifatidagi mavqeyi urg‘uning funksional ahamiyatini kuchaytirishi aniqlashtirildi.

Xulosa. O‘zbek tilida fe’l so‘z turkumidagi urg‘u o‘ziga xos fonetik va funksional xususiyatga ega bo‘lib, u, asosan, kvantitativ xarakter kasb etadi. Ya’ni, fe’llarda urg‘u, urg‘uli bo‘g‘inning boshqa bo‘g‘inlarga nisbatan cho‘ziqroq talaffuz qilinishi orqali namoyon bo‘ladi. Fe’l shakllarida urg‘uning joylashuvi

avvalo o‘zakning fonetik tuzilishi, bo‘g‘in tarkibi hamda qo‘shimchalarning grammatik vazifasi bilan belgilanadi. Tub fe’llarda va ayrim yasama fe’llarda urg‘u, asosan, o‘zakda saqlanadi. Shuningdek, fe’lga qo‘shiladigan grammatik ko‘rsatkichlar, jumladan, 2-shaxs ko‘plik, nisbat, ravishdosh va harakat nomi yasovchi affikslar urg‘u olmaydi va leksik urg‘u o‘zakda qoladi. Biroq -(u)v, -gan, -(a)r kabi shakllar urg‘u oladi, natijada urg‘u affiksli bo‘g‘inda markazlashadi. Bu esa fe’l shakllarida urg‘uning faqat fonetik omillar bilan emas, balki grammatik va semantik omillar bilan ham uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Fonetik reduksiya yoki tor unlilarning ishtiroki urg‘uning keyingi bo‘g‘inga ko‘chishiga sabab bo‘lishi ham qayd etildi.

Kontekstual tahlil asosida esa fe’l urg‘usining gap tarkibidagi vazifasi ham muhim. Fe’l kesim vazifasida kelganda nafaqat leksik urg‘u, balki mantiqiy va ta’kid urg‘usining ham markaziga aylanishi mumkin. Analitik shakllarda ko‘makchi, yordamchi va to‘liqsiz fe’llar urg‘u olmaydi

Xulosa o‘rnida, o‘zbek tilida fe’l so‘z turkumida urg‘u tizimi murakkab va ko‘p omilli hodisa bo‘lib, uning namoyon bo‘lishida fonetik tuzilish, morfologik shakllanish va nutqiy-kontekstual vaziyat birgalikda ishtirok etadi. Shu bois fe’llarda urg‘uni o‘rganish nafaqat fonetika, balki morfologiya, sintaksis hamda nutq lingvistikasi uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). P.Ladefoged and K.Johnson, A Course in Phonetics, 6th ed. Boston, MA, USA, Wadsworth/Cengage Learning, 2011.

(2). Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent, “Universitet”, 2006, 159-bet.

(3). Sayfullayeva R., Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2010, 185-bet.

(4). Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2013, 139-bet.

(5). Mirtojiyev M.M. O‘zbek tili fonetikasi. Toshkent, “Fan”, 2013, 175-bet.

Ibragimova Shabnam Aybek qizi (Urganch davlat Tibbiyot instituti ingliz tili o‘qituvchisi, Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi; phoebeshabnam@gmail.com)

INGLIZ VA O‘ZBEK TILIDA E’TIQOD MAZMUNLI PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING STRUKTUR XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi e’tiqod mazmunli paremiologik birliklarning struktur xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ikki tilda uchraydigan e’tiqodga oid maqol, matal va hikmatli iboralarning sintaktik, kompozitsion hamda semantik-struktur modellari o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlashdan iborat. Paremiologik birliklar xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, axloqiy me’yorlari va milliy mentalitetini aks ettiruvchi barqaror til birliklari sifatida alohada ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, e’tiqod mazmunli paremiyalar insonning ishonch, sabr, taqdir, tavakkal, ezgulik, yomonlik, halollik, niyat va ruhiy qarashlarini ifodalashda faol qo‘llanadi. Maqolada qiyosiy-tipologik, struktur-semantik, deskriptiv va lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijasida ingliz va o‘zbek tillaridagi e’tiqod mazmunli paremiologik birliklar sodda gap, qo‘shma gap, parallel konstruksiya, antitezali model, shart ergash gapli model, buyruq-istak shakli hamda elliptik konstruksiyalar asosida shakllanishi aniqlandi. Shuningdek, o‘zbek tilidagi paremiyalarda nasihat, pand, sabr va taqdirga munosabat kuchliroq ifodalansa, ingliz tilidagi birliklarda ehtiyotkorlik, axloqiy me’yor, amaliy xulosa va individual mas’uliyat semalari kuchliroq namoyon bo‘lishi kuzatildi. Tadqiqot xulosalariga ko‘ra, e’tiqod mazmunli paremiologik birliklarning struktur qurilishi ularning mazmunini ifodalashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mazkur maqola paremiologiya, qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya hamda tarjimashunoslik sohalari uchun muhim nazariy va amaliy manba bo‘la oladi.*

Kalit so‘zlar: *paremiologik birlik, e’tiqod, maqol, matal, struktur xususiyat, semantika, lingvokulturologiya, qiyosiy tahlil.*

Ибрагимова Шабнам Айбек кизи (преподаватель английского языка Ургенчского государственного медицинского института, независимый соискатель Ургенчского государственного университета; (phoebeshabnam@gmail.com)

СТРУКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С СОДЕРЖАНИЕМ ВЕРЫ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В данной статье проводится сравнительный анализ структурных особеннос-тей паремиологических единиц с содержанием веры в английском и узбекском языках. Основная цель исследования заключается в выявлении сходных и отличительных черт синтаксических, композиционных и семантико-структурных моделей пословиц, поговорок и мудрых изречений, связан-*